

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 4 829,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 4,5 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 114,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,8 % ga yetdi.



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
I. YaHM		4 043,8	4 829,0	104,5

shu jumladan:

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 705,9	4 279,1	104,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	337,9	549,9	105,7
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 705,9	4 279,1	104,4
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	479,0	548,6	102,9
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 653,8	1 984,7	107,8
	sanoat	1 304,4	1 609,7	109,4

		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
	qurilish	349,4	375,0	101,6
Xizmatlar		1 573,1	1 745,8	101,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	232,7	265,6	102,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	295,7	299,4	93,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 044,7	1 180,8	103,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2 507,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2 % ga yuqoridir.



Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari

2020- yil

2 127,1

1,4

2021- yil

2 507,8

3,2



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi (ming so'm)

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 88,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 11,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 12,8 % ni, sanoat tarmog'i 37,6 % ni, qurilish 8,8 % ni va xizmatlar sohasi 40,8 % ni tashkil qildi.




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM
tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

		2020-yil	2021-yil
I. YaHM, jami		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91,6	88,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	8,4	11,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati		100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12,9	12,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)		44,6	46,4
	sanoat	35,2	37,6
	qurilish	9,4	8,8
Xizmatlar		42,5	40,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,3	6,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,0	7,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	28,2	27,6




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM
tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

2020- yil




2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,9 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 12,8 %), sanoatda – 109,4 % (37,6 %), qurilishda – 101,6 % (8,8 %), xizmatlar sohasida – 101,4 % ni (40,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 102,1 % (6,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 93,9 % (7,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (27,6 %) iborat bo'ldi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,0 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,4 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,2 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,4 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 0,5 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 1,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,5 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.




2021-yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 114,2 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'satkichlari sanoatda – 112,8 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 111,3 % qayd etildi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)**



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 41,2 % ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 42,2 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.